

IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASHDA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV MATERIALLARINING MAQBULLIK MASALASI

Inomjonova Durtdonaxon Zafarjon qizi

Huquqshunos

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21913020>

Annotatsiya. Bugungi kunda soat sayin oshib borayotgan iqtisodiy jinoyatlar nafaqat davlat byudjetida ildiz otgan muammolardan biri, balki iqtisodiy taraqqiyot va strategik rivojlanishning kushandasi hamdir. Biroq huquqiy davlat qurilishining hozirgi bosqichida ushbu jinoiy qilmishlarni to'g'ri malakalash nafaqat qilmishga munosib jazo tayinlash uchun, balki uni boshqa huquqiy munosabatlar turidan aniq ajratib olish uchun ham eng muhim shart hisoblanadi, chunki aybi qonuniy va maqbul dalillar bilan isbotlangan har qanday qilmish jazoga tortilishi muqarrar bo'lsa, aybning mavjud emasligi yoki uni lozim darajada qonuniy hamda maqbul yo'llar bilan aniqlashtirmaslik reabilitatsiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, tergovga qadar tekshiruv harakatlarining ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi, zero, aynan ushbu harakatlar orqali yig'ilgan ma'lumotlar mavjud munosabatning jinoiy qilmish ekanligini tasdiqlovchi yoki, aksincha, uni istisno qiluvchi dalillar yig'indisini shakllantiradi. Ushbu maqolada tergovga qadar tekshiruv materiallarining huquqiy tabiati, ularning dalil sifatidagi maqomi, maqbullik mezonlari, shuningdek amaldagi qonunchilikdagi muvofiqlashtirilmagan qoidalar va amaliyotdagi muammolar iqtisodiy jinoyatlar misolida tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy jinoyat, tergovga qadar tekshiruv, dalillar, dalillarning maqbulligi, jinoyat-protsessual kodeks, dalillarni baholash mezonlari, qonunchilikdagi ziddiyat.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, xususan, jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning qonuniyligi va asoslilikini ta'minlashga qaratilgan. Iqtisodiy jinoyatlar murakkab, ko'p bosqichli, moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jinoyat turi sifatida ularni aniqlash, malakalash va isbotlashda maxsus bilim va tegishli hujjatlar (buxgalteriya, soliq, bank, auditorlik hujjatlari va h.k.) bilan ishlashni taqozo etadi. Aynan shu sababli iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilishidan avvalgi bosqich — tergovga qadar tekshiruv bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur bosqichda to'plangan materiallar keyinchalik jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida foydalanilishi yoki, aksincha, huquqbuzarlik yo'li bilan olinganligi sababli maqbul emas deb topilishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi - tergovga qadar tekshiruv materiallarining huquqiy mohiyatini, ularning jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatidagi maqomini, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (bundan buyon - JPK) va Oliy sud Plenumi qarorlarida belgilangan maqbullik mezonlarini iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash amaliyoti misolida tahlil qilish, shuningdek ushbu sohadagi qonun normalari o'rtasidagi muvofiqlashtirilmagan holatlar va amaliy muammolarni aniqlab, ularga ilmiy-amaliy asoslangan yechimlar taklif etishdan iborat.

Tergovga qadar tekshiruvning iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashdagi o'рни JPKning 39¹ va 39² -moddalariga muvofiq¹, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash, shuningdek qonunda belgilangan tartibda tekshirib chiqilgach jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash vazifasi yuklatilgan. Iqtisodiy jinoyatlarga nisbatan bu vazifani, jumladan, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, davlat bojxona xizmati organlari, shuningdek Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari amalga oshiradi.

Iqtisodiy jinoyatlar (Jinoyat kodeksining «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan XII bobida nazarda tutilgan, xususan 175-177-moddalarda ko'zda tutilgan qilmishlar², shuningdek soliq, moliya-kredit, tadbirkorlik sohasidagi boshqa jinoyatlar) o'zining lotent xususiyati, ya'ni tashqi ko'rinishda qonuniy fuqarolik-huquqiy yoki xo'jalik munosabatlari niqobi ostida sodir etilishi bilan ajralib turadi. Shu bois, tergovga qadar tekshiruv bosqichida moliyaviy-xo'jalik hujjatlarini o'rganish, hisob-kitob operatsiyalarini tahlil qilish, mutaxassis va ekspertlarni jalb etish, tekshiruv (reviziya) va auditorlik xulosalarini olish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu harakatlar natijasida shakllangan materiallar keyinchalik jinoyat ishi qo'zg'atish yoki uni qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorga asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibi JPKning 329-moddasida, ularni ko'rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar esa 330-moddada belgilangan³; agar tergovga qadar tekshiruv natijasida to'plangan ma'lumotlar tegishli bo'lmagan organga aloqador bo'lsa, JPKning 335-moddasiga ko'ra ariza (xabar) tegishliligi bo'yicha yuboriladi, jinoyat ishini qo'zg'atish qonuniyligi ustidan esa JPKning 337-moddasiga muvofiq prokuror nazorat qiladi.

Dalillarning maqbulligi tushunchasi va uning mezonlari

jinoiat-protsessual nazariyada dalilning maqbulligi uning protsessual shaklga, ya'ni dalilni to'plash, mustahkamlash va rasmiylashtirish tartibiga muvofiqligini anglatadi. JPKning

¹O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 22.09.1994-y., 39¹-modda «Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar», 39²-modda «Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig'ining va uning mansabdor shaxsining vakolatlari» // lex.uz, hujjat -111460.

²O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 22.09.1994-y., XII bob «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar»: 175-modda «O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish», 176-modda «Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish», 177-modda «Valyuta qimmatliklarini, qimmatbaho metallar va (yoki) qimmatbaho toshlarni qonunga xilof ravishda olish yoki sotish» // lex.uz, hujjat -111453.

³O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 329-modda «Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibi», 330-modda «Jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar», 335-modda «Jinoyat to'g'risidagi arizani (xabarni) tergovga tegishliligiga qarab yuborish», 337-modda «Jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati» // lex.uz, hujjat -111460.

95-moddasiga ko'ra⁴, har bir dalil aloqadorligi, ishonchliligi va maqbulligi nuqtai nazaridan, dalillar majmui esa yetarliligi nuqtai nazaridan baholanadi, ya'ni har bir dalil boshqa dalillar bilan birgalikda jinoyat ishini tergov qilish va sud muhokamasida hal etish uchun yetarli bo'lishi lozim. Demak, maqbullik mezoni dalilning mazmuniy (isbotlash ahamiyatiga ega bo'lishi) emas, balki protsessual (uni olish tartibi qonunga muvofiqligi) jihatini tavsiflaydi.

JPKning 95¹-moddasi maxsus ravishda «Dalillarning maqbul emasligi» institutini nazarda tutadi⁵ va unga ko'ra, jumladan, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan JPK normalari buzilgan holda olingan ko'rsatuvlardan, ekspert xulosasidan, ashyoviy dalillardan, elektron ma'lumotlardan, audio-, videoyozuvlardan va boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanadi. JPKning 11-moddasida mustahkamlangan qonuniylik prinsipi⁶ surishtiruv, tergov va sud organlaridan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda jinoyat-protsessual qonuni normalariga qat'iy rioya etishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarorida (2025-yil 23-iyundagi 14-sonli qaror bilan kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) alohida ta'kidlanishicha⁷, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonun normalarini aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko'ra yuz berganidan qat'iy nazar, shu yo'l bilan olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi. Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan JPKning 82–84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas⁸. Bu qoida, xususan, vakolatsiz shaxs tomonidan, yoxud JPKning 76-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishtirok etishi rad etilishi lozim bo'lgan shaxs⁹ tomonidan to'plangan materiallarga ham to'liq taalluqlidir.

⁴O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 95-modda «Dalillarga baho berish» // lex.uz, hujjat -111460.

⁵O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 95¹-modda «Dalillarning maqbul emasligi» // lex.uz, hujjat -111460.

⁶O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 11-modda «Qonuniylik» // lex.uz, hujjat -111460.

⁷O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori, 1-band (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi 14-son qarori tahririda) // lex.uz, hujjat -3895986.

⁸O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 82-modda «Ayblash va hukm qilish uchun asoslar», 83-modda «Reabilitatsiya uchun asoslar», 84-modda «Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar» // lex.uz, hujjat -111460.

⁹O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 76-modda «Sudyaning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining va sud majlisi kotibining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar» // lex.uz, hujjat -111460.

Shu bilan birga, Oliy sud Plenumi qarorida muhim istisno ham nazarda tutilgan: to'plash jarayonida yo'l qo'yilgan qonun buzilishi sababli maqbul emas deb topilgan ayrim dalillardan, agar tegishli protsessual harakat qayta, belgilangan talablarga to'liq rioya qilingan holda o'tkazilsa yoxud yo'l qo'yilgan kamchilik xolis shaxslarni, harakatning boshqa ishtirokchilarini, zarur hollarda esa surishtiruvchi yoki tergovchini so'roq qilish orqali bartaraf etilsa, isbotlashda foydalanish mumkin. Bu qoida amaliyotda iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha, ayniqsa ko'p sonli moliyaviy hujjatlar bilan ishlashda, protsessual kamchiliklarni oqilona bartaraf etish imkonini beradi, biroq bu imkoniyat qonun talablarini har safar aniq bajarish zaruratini bekor qilmaydi.

Tergovga qadar tekshiruv materiallarining dalil sifatidagi huquqiy maqomi JPKning 87-moddasi¹⁰ dalillarni to'plash tartibini, 88-moddasi esa bu jarayonda fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash talablarini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, tergovga qadar tekshiruv materiallari o'z-o'zidan avtomatik ravishda «dalil» maqomiga ega bo'lmaydi — ular faqat JPKda belgilangan tartibda jinoyat ishiga qo'shib qo'yilgach va tegishli protsessual shaklga solingach dalil sifatida foydalanilishi mumkin. Boshqacha aytganda, tergovga qadar tekshiruv bosqichida to'plangan ma'lumot (masalan, moliyaviy hujjat nusxasi, tushuntirish, reviziya dalolatnomasi) o'zining dastlabki, «xom» holatida emas, balki jinoyat ishi materiallariga qonuniy tarzda kiritilgandan so'ng dalil ahamiyatiga ega bo'ladi.

Bunda ikkita jihat alohida e'tiborga loyiq. Birinchidan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs faqat o'ziga JPKda va tarmoq qonunchiligida berilgan vakolatlar doirasida harakat qilishi shart; aks holda to'plangan material vakolat doirasidan tashqarida olinganligi sababli maqbul emas deb topilishi mumkin. Ikkinchidan, iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda ko'pincha tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan foydalaniladi; ularning dalil sifatidagi maqbulligi ular JPKda nazarda tutilgan protsessual harakatlarga (masalan, hujjatlarni chiqarib olish, so'roq qilish, ekspertiza tayinlash) aylantirilgan va tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan taqdirdagina yuzaga keladi.

Iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha maqbullikka ta'sir etuvchi omillar iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash amaliyotida tergovga qadar tekshiruv materiallarining maqbulligiga bir qator o'ziga xos omillar ta'sir ko'rsatadi:

- vakolat doirasi va sub'ektlik - materialni faqat tegishli vakolatga ega bo'lgan, JPKning 76-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishdan chetlashtirilishi lozim bo'lmagan mansabdor shaxs to'plagan bo'lishi;
- moliyaviy-xo'jalik hujjatlarini olishning protsessual shakli - hujjatlarni talab qilib olish, chiqarib olish yoki tekshiruv o'tkazish tegishli bayonnoma va boshqa rasmiylashtiruv hujjatlari bilan tasdiqlanishi;
- maxsus bilimlarni jalb etishning qonuniyligi - buxgalteriya-moliyaviy, tovarshunoslik, iqtisodiy ekspertizalarning JPKda belgilangan tartibda tayinlanishi va o'tkazilishi;

¹⁰O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 87-modda «Dalillar to'plash», 88-modda «Isbot qilish jarayonida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash» // lex.uz, hujjat -111460.

- ma'lumot manbaining ishonchliligi va uni tekshirish imkoniyati — masalan, elektron hujjatlar, bank operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarning tegishli vakolatli organlardan rasmiy tartibda olinganligi;

- dalillarni to'plash jarayonida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining himoya huquqiga rioya etilganligi, jumladan tushuntirish va ko'rsatmalarning erkin ravishda, bosim va tahdidsiz olinganligi.

Amaliyotda ko'p uchraydigan muammolardan biri - tergovga qadar tekshiruv bosqichida olingan tushuntirishlarning keyinchalik jinoyat ishi bo'yicha ko'rsatma sifatida qayta rasmiylashtirilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri dalil sifatida ishlatilishidir. Bunday holatlarda, agar tegishli shaxs keyinchalik JPKda belgilangan protsessual tartibda qayta so'roq qilinmasa, dastlabki tushuntirish o'z-o'zidan sud hukmiga asos bo'la olmaydi, chunki bu JPKning 95-moddasida nazarda tutilgan maqbullik mezoniga zid keladi.

Qonunchilikdagi muvofiqlashtirilmagan holatlar, amaliyotdagi kamchiliklar va ularning yechimi o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda tergovga qadar tekshiruv materiallarining maqbulligini ta'minlashda amaldagi qonunchilikda bir qator muvofiqlashtirilmagan holatlar hamda amaliyotda takroran uchraydigan kamchiliklar mavjud. Ularning asosiylarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Birinchidan, tarmoq qonunchiligi bilan ziddlik. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi, soliq va bojxona qonunchiligi hujjatlarni talab qilib olish, tekshiruv (reviziya) o'tkazish tartibini o'z sohasiga xos protsessual bosqichlar (masalan, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun asosida auditorlik tekshiruvi o'tkazish, Soliq kodeksi asosida kameral yoki xronometraj nazorati o'tkazish) bo'yicha tartibga soladi¹¹, biroq bu tartib JPKning dalillarni rasmiylashtirishga oid talablari (bayonnoma tuzish, JPKning 90 - 92-moddalarida nazarda tutilgan qayd etish shakllariga rioya qilish) bilan avtomatik ravishda uyg'unlashtirilmagan. Natijada, sohaviy qonunchilik asosida to'plangan moliyaviy-xo'jalik hujjatlari va tekshiruv natijalari tergovga qadar tekshiruv organiga topshirilganda, ular ustidan qayta protsessual rasmiylashtirish o'tkazilmasa, JPKning 95¹-moddasi asosida maqbul emas deb topilish xavfi yuzaga keladi. Bu holat amaliyotda ishning uzoq muddat cho'zilishiga va isbotlash bazasining zaiflashishiga olib kelmoqda.

Ushbu muammoning ilmiy-amaliy yechimi sifatida quyidagilar taklif etiladi: birinchi, sohaviy qonunchilikda (auditorlik, soliq, bojxona sohasidagi qonun hujjatlarida) tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish shakllarini JPKning 90–92-moddalarida nazarda tutilgan umumiy talablarga muvofiqlashtirish; ikkinchi, tegishli vazirlik va idoralar (Bosh prokuratura, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Markaziy bank) o'rtasida moliyaviy-xo'jalik hujjatlarini almashish va ularni protsessual jihatdan mustahkamlashning yagona qo'shma yo'riqnomasini ishlab chiqish.

Ikkinchidan, vakolatlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilmaganlik. Amaldagi qonunchilikda iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash bo'yicha bir nechta organ (ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati, bojxona organlari, soliq organlari huzuridagi ichki xavfsizlik bo'linmalari) parallel vakolatlarga ega, biroq ularning bir xil faktlar yuzasidan bir vaqtda tergovga qadar tekshiruv

¹¹O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-fevraldagi O'RQ-671-son «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son // lex.uz.

o'tkazishining oldini oluvchi aniq protsessual mexanizm JPKda to'liq ishlab chiqilmagan¹². Bu holat amaliyotda bir xil xo'jalik subyekti faoliyati yuzasidan turli organlar tomonidan bir vaqtning o'zida boshlangan tekshiruvlarga, natijada esa to'plangan materiallarning bir-biriga zid bo'lishiga yoxud takroran to'planishiga olib kelmoqda.

Bu boradagi yechim sifatida JPKning 39¹-moddasiga qo'shimcha norma kiritish, unda bir xil faktlar yuzasidan bir nechta organ tomonidan tergovga qadar tekshiruv boshlanganda ularni birlashtirish yoxud yagona vakolatli organga topshirish tartibini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Bosh prokuratura huzuridagi yagona elektron reestr orqali barcha tergovga qadar tekshiruv organlarining iqtisodiy jinoyatlarga oid arizalarni real vaqt rejimida qayd etish va bir-biriga xabar berish tizimini joriy etish takrorlanishning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tushuntirish olishning protsessual kafolatlari yetarli emasligi. JPKning 95¹-moddasi uchinchi qismi 2019-yilda kiritilgan tahrirda elektron ma'lumotlar, audio- va videoyozuvlarni dalil sifatida foydalanish taqiqlari doirasiga kiritgan bo'lsa-da, amaliyotda tergovga qadar tekshiruv bosqichida shaxslardan tushuntirish olish jarayonining audio yoki videoyozuvga olinishi majburiy emas. Bu esa keyinchalik sud tomonlar o'rtasida tushuntirishning erkin holatda olinganligi yoki olinmaganligi yuzasidan bahsli vaziyatlarni keltirib chiqaradi va, oxir-oqibat, dalilning ishonchliligiga shubha tug'diradi.

Ilmiy-amaliy yechim tariqasida iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha (ayniqsa yirik miqdordagi zarar keltirilgan holatlarda) tergovga qadar tekshiruv bosqichida tushuntirish olish jarayonini majburiy audio- yoki videoyozuvga olish talabini JPKga maxsus norma sifatida kiritish taklif etiladi. Bu, bir tomondan, dalilning ishonchliligini oshiradi, ikkinchi tomondan, gumon qilinuvchi shaxsning huquqlari buzilishining oldini oladi hamda keyinchalik dalilning maqbul emas deb topilishi xavfini kamaytiradi.

To'rtinchidan, maxsus uslubiy bazaning yetishmasligi. Umumiy jinoyatlardan farqli o'laroq, iqtisodiy jinoyatlarni tergovga qadar tekshirish bo'yicha yagona idoralararo uslubiy qo'llanma yoki metodika mavjud emas, natijada amaliyotchilar moliyaviy-xo'jalik hujjatlarini to'plash, saqlash va rasmiylashtirishda idoradan-idoraga farqlanuvchi yondashuvlarni qo'llaydi. Yechim sifatida Bosh prokuratura, Oliy sud va tegishli vazirliklar ishtirokida iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv materiallarini to'plash va rasmiylashtirishning yagona idoralararo metodik tavsiyalarini ishlab chiqish hamda ularni doimiy ravishda sud amaliyoti tahliliga tayangan holda yangilab borish taklif etiladi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, tergovga qadar tekshiruv bosqichi iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashning boshlang'ich va, ayni paytda, hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi, chunki aynan shu bosqichda to'plangan materiallarning qonuniyligi va sifati keyingi barcha protsessual harakatlarning to'g'riligini belgilaydi. Tergovga qadar tekshiruv materiallari o'z-o'zidan dalil bo'lib qolmaydi ular JPKning 95-moddasida nazarda tutilgan aloqadorlik, ishonchlilik, maqbullik va yetarlilik mezonlariga javob bergan hamda 95¹-moddada nazarda tutilgan taqiqlarga zid kelmagan, qonunda belgilangan protsessual tartibda jinoyat ishi materiallariga kiritilgan taqdirdagina dalil ahamiyatiga ega bo'ladi.

¹²Qarang: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risidagi Nizom (Prezident farmoni asosida tasdiqlangan) // lex.uz.

Shu bilan birga, tahlil natijasida amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik va tarmoq qonunchiligi (auditorlik, soliq, bojxona sohasi) o'rtasidagi muvofiqlashtirilmagan holatlar, turli tergovga qadar tekshiruv organlari vakolatlarining o'zaro chegaralanmaganligi, tushuntirish olish jarayonining yetarli protsessual kafolatlar bilan ta'minlanmaganligi hamda iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha yagona idoralararo metodikaning mavjud emasligi kabi amaliy muammolar aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida maqolada tarmoq qonunchiligini JPK talablariga muvofiqlashtirish, vakolatlarni aniq chegaralovchi norma kiritish, tushuntirish olishni majburiy audio-videoyozuvga olish hamda yagona idoralararo metodik tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha aniq takliflar ilgari surildi. Fikrimizcha, ushbu takliflarni amaliyotga tatbiq etish iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda to'planadigan dalillarning maqbulligini ta'minlash, asossiz ayblovlarning oldini olish va reabilitatsiya institutini samarali ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 1994-yil 22-sentabr (XII bob «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar», 175–177-moddalar) // lex.uz, hujjat -111453.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 1994-yil 22-sentabr (11, 39¹, 39², 76, 81–84, 87, 88, 90–92, 95, 95¹, 329, 330, 335, 337-moddalar) // lex.uz, hujjat -111460.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2025-yil 23-iyundagi 14-son qarori bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan) // lex.uz, hujjat -3895986.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son // lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-fevraldagi O'RQ-671-son «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni // lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ-407-son «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni // lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-son «Sud hukmi to'g'risida»gi qarori.
8. lex.uz — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi.